2026-yil 7-maydagi
102-MMI- sonli buyrug‘iga
2-ilova

“O‘zbekiston metrologiyasi” ilmiy-texnik elektron jurnaliga taqdim etiladigan ilmiy maqolalarga
TALABLAR

Umumiy talablar

“O‘zbekiston metrologiyasi” ilmiy-texnik elektron jurnalida xalqaro, mintaqaviy va respublika miqyosida metrologiya, texnik jihatdan tartibga solish sohasiga oid dolzarb masalalar va islohotlar, ilmiy yondoshuvlar va istiqboldagi rejalar, nazariy, amaliy va qonunlashtiruvchi metrologiya hamda o‘lchashlar yagonaligini ta’minlash sohalaridagi yangi kashfiyotlar va olib borilayotgan ilmiy tajribalar chop etiladi. Jurnalga o‘zbek, rus yoki ingliz tilida yozilgan maqolalar qabul qilinadi.

Jurnalga taqdim etilgan qo‘lyozmalar original va ilgari chop etilmagan, dolzarb va ilmiy asoslangan bo‘lishi talab etiladi. Maqolaning mazmuni, undagi fikrlar faktlar uchun mualliflar mas’ul hisoblanadi. Yuborilgan barcha maqolalar maxsus antiplagiat dasturida tekshirilib, taqrizchilar tomonidan tavsiya etilgandan keyingina chop etiladi.

Maqola matnini rasmiylashtirish uchun qo‘yiladigan talablar:

Maqolaning formati – A4 kitobiy (knijnaya), Microsoft Word (*.doc yoki *.docx) formatda bo‘lishi kerak;

Matning yonlaridan qoldiriladigan o‘lcham – 2 sm;

Shrift – Times New Roman;

Maqola matni uchun shriftning kattaligi – 14, metama’lumotlar (annotatsiya, kalit so‘zlar) uchun –12;

Maqola matni uchun qatorlar oralig‘i – 1;

Xat boshi (abzas) – 1;

Maqola matni – kengligi bo‘yicha (po shirine) tekislangan bo‘lishi kerak;

Sahifalar – raqamlanmaydi;

Ilovalar – har xil grafik va jadvallar tartib raqam bilan belgilanishi va izohi yozilgan bo‘lishi talab qilinadi. Maqolada foydalanilgan rasmlar alohida fayl ko‘rinishida taqdim etilishi lozim;

Havolalar – maqola matnida foydalanilgan adabiyotlardan olingan materialga havola uning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidagi tartib raqami va shu adabiyotga iqtibos material joylashgan bet qavs ichida, maqola matnining o‘zida alohida ko‘rsatiladi (masalan: [1; B.25]).

Maqolaning hajmi – eng kamida 5 bet (bunga annotatsiya va kalit so‘zlar kirmaydi), ko‘pi bilan 15 betgacha bo‘lishi lozim.

Maqolaning tuzilishiga qo‘yiladigan talablar:

1. Maqolaning nomi – matni (hammasi bosh harflar bilan) Times New Roman 14 shriftda o‘rta kenglikda (po sentru) bo‘lishi kerak;
2. Muallif(lar)ning familiyasi, ismi, otasining ismi, ish (o‘qish) joyi, ilmiy darajasi va unvoni sahifaning o‘ng burchagida Times New Roman 14 shirftda;

TCV7073

3. Annotatsiya – o‘zbek, rus va ingliz tillarida (Times New Roman 12 shirft, 1 interval oraliqda) yozilishi kerak. So‘zlar soni 30-50 tani tashkil etishi kerak. Qisqa annotatsiyalar qabul qilinmaydi;

4. Kalit so‘zlar – o‘zbek, rus va ingliz tillarida (Times New Roman 12 shirft, 1 interval oraliqda) yozilishi kerak. So‘zlar soni 10-15 ta so‘z va iboradan kam bo‘lmasligi kerak;

5. Maqolaning matni ilmiy uslubda iqtiboslardan foydalangan holda rasmyilashtirilgan bo‘lishi kerak. Majburiy talab maqolaning kirish, asosiy qism va xulosadan iborat bo‘lishi hisoblanadi. Maqolani IMRAD uslubida (Kirish, Metodologiya, Natijalar, Muhokama, Xulosa) yozish tavsiya etiladi va ustunlikka ega bo‘ladi;

6. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati alifbo tartibida, Times New Roman 14 shriftda ko‘rsatilishi lozim. Undan so‘ng dissertatsiya, monografiya va ilmiy maqolalar alifbo tartibida keltiriladi. Ro‘yxatga faqatgina maqolada foydalanilgan adabiyotlar keltirilishi kerak.

TCV7073